



XIX-XX ASR XORAZM ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIKDA KAMOLIY IJODINING TADQIQ ETILISHI

Muallif: Jalilov Sharofiddin Saidaxmadxon o'g'li¹

Affiliyatsiya: Yangi asr universiteti Sharq filologiyasi kafedrası o'qıtuvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20226410>

Istiqloq davri matnshunosligida XIX asr va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida yashab ijod qilgan ijodkorlar adabiy merosi tadqiqi borasida miqyosi baland ishlar amalga oshirildi, oshirilmoqda. Turli ijodkorlarning lirik merosi, adabiy asarlari adabiyotshunoslik va matnshunoslik yuzasidan tadqiqot ishlari amalga oshirildi va nashrlardan chiqdi. Lekin bu davr adabiyotida tadqiqotchilarini kutayotgan mavzular va asarlar talaygina ekani va hali hammasi o'rganilmaganligi ham ayni haqiqatdir. Bu orqali "...Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan"[1:4]. Salmoqli adabiy merosi bilan o'zbek mumtoz she'riyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan ana shunday ijodkorlardan biri Otanazar Kamoliy hayoti va ijodiy merosi ham monografik ko'lamda o'rganilgan emas. Vaholanki, Otanazar Kamoliy adabiy merosining mamlakatimiz va xorijda fondlarida mavjud qo'lyozma va toshbosma manbalari, hamda arxiv hujjatlarini matniy-qiyosiy tadqiq etish asosida shoir nazmiy asarlarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik erishgan bugungi yutuqlari asosida qayta tadqiq qilish zarurati mavjud. Kamoliyning diniy-ma'rifiy va ijtimoiy mavzularni qamrab olgan katta hajmdagi lirik asarlari e'tibordan chetda qolib kelgan. Shunga ko'ra, shoir nazmiy asarlarining matn tarixi va tahriri masalasini o'rganishga katta ehtiyoj bor.

Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar hayoti va lirik merosi to'g'risida ular faoliyat yuritgan davridayoq ko'pgina tarixiy asar va tazkiralarda qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Mazkur tazkiralarda shoir hayoti va ijodiy merosi manbalari qisman o'rganilgan. Hasanmurod Laffasiy, Bobojon Tarroh xodim, Ahmadjon Tabibiy singari ijodkor olimlarning shoir hayoti va ijodiy faoliyati, devoni manbalari va ularning mavzu ko'lamı ustida olib borgan tadqiqotlari kamoliyshunoslikka qo'shilgan munosib hissadir.

Otanazar Kamoliyning zamondoshi Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirai shuaro"(Xiva shoir va adabiyotchilarining ahvollari), Ahmadjon Tabibiyning "Majmuat ush-shuaro payravi Feruzshohiy", Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm navozandalari" asarlarida shoir hayoti va faoliyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bilan birga bir qancha she'rlari ham beriladi.

"Majmuat ush-shuaro payravi Feruzshohiy". Tabibiy ko'chirgan nodir manbada o'sha davr adabiy muhiti namoyandalaridan bo'lgan ko'plab ijodkorlarning she'rlari qayd etiladi. Ushbu manba hozirgi kunda Abu Rayxon Beruniy nomidagi



Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 1152-inventar raqami ostida saqlanadi. "Majmuat ush-shuaro" asarning badiiy qimmatini shundaki, unda Feruz, Ogahiy, Mutrib Xonaxarob, Kamoliy, Purkomil, Doiy, Haqiriy, Ojiz, Yusuf, Habib, Hoki, Rog'ib, Tabibiy, Umidiy, Hayoliy, Sultoniy, Chokar kabi ko'plab shoirlarning qalamiga mansub g'azal va muxammaslar keltirilib, ularning har biriga muallif tomonidan baytlar bitilgan. Muallif tomonidan bitilgan masnaviyalar asarda nomi kelgan shoirlarning hayoti, xarakteri, ijodi haqida qimmatli ma'lumot o'rnidir. Tabibiyning quyidagi masnaviyasi shoir Kamoliyning Feruzga payrav yozgan g'azaliga bitilgandir:

*Kamoliyki, hushtur maqoli oning,
O'lum ichra kamoli oning.
Chu ko'rdi shahanshohdin bir g'azal,
Anga yozdi tatabbu masa[2:10].*

Ushbu masnaviy orqali biz shoir Kamoliyning duogo'y, kamtar va xushfe'l inson ekanligi, dunyo ishlariga ruju qo'ymanligi kabi yuksak fazilat egasi ekanligi hamda she'r ilmidagi iste'dodi balandligi sababli Feruzshohdan o'zining g'azaliga payrav g'azal yozishi to'g'rida buyruq olganligi borasida ma'lumot olishimiz mumkin.

Yana bir masnaviyda Kamoliy xususida shunday deyiladi:

*Kamoliy dag'i mard komil erur,
Anga fahm ila hush xosil erur.
Duogo'y o'lub sidqu sabab bila,
Dedi bu g'azalni itoat bila.*

Va ushbu masnaviydan so'ng Ogahiyning mashhur "sallamno" radifli g'azaliga taxmis qilib yozilgan baytlari ko'chirilgan.

*ايا شوخ ستمگر چشم خمارينكغه سللمنا
خددى گولگون چوقدى سروى رفتارينكغه سللمنا
تكللوم ايلگى قندو عسل قدريني محوايتى
مسيحا موج... آنداغكى گفتارينكغه سللمنا
Ayo sho'xi sitamgar chashmi xummoringg'a sallamno,
Xaddi gulgun chu qaddi sarvi raftoringg'a sallamno.
Takallum aylagay qand-u asal qadrini mahv etdi,
Masiho mavj... andog'ki guftoringg'a sallamno[3:3].*

Bundan tashqari Tabibiy qalamiga mansub Sharqshunoslik institutida 1134 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozmada ham o'sha davr adabiy muhiti vakillari ijodidan namunalar keltirilgan. Kuzatishlar bunda ham shoir Kamoliy qalamiga mansub ko'plab muxammaslarning borligi ko'rsatilgan. Darvoqe, Tabibiy qalamiga mansub ushbu masnaviydan ham shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot olish mumkin:

*Inoyatki, dargohida devon erur,
Anga fahm donish farovon erur.
O'zi xo'b erur asru shatranjboz,
Bu na'vi ish aro qildi ifshoyi roz[4:4].*

Bu o'rinda Kamoliyning saroyda ma'lum bir lavozimda ishlagani (mutavalli), she'r bitishga uquvi yuksakligi hamda shatranj o'yinida yaxshigina malakaga ega ekanligi qayd etilgan. Masnaviydan so'ng Feruz g'azaliga yozilgan Kamoliy muxammasi o'rin olgan.

Tabibiy tazkirasida ma'lum bir ijodkor – xoh u quyi, xoh yuqori tabaqaga mansub bo'lsin, unga xolis baho beradi. Masalan, Kamoliy taxallusi bilan she'rlar yozgan Otanazar mutavalli Kamoliy haqida:

*Kamoliyki, xushtur maqoli oning,
O'lum ichra kamoli oning.
Chu ko'rdi shahanshohdin bir g'azal,
Anga yozdi tatabbu masa[5:10].*

deya iliq gaplarni aytsa, kambag'al shoirlardan bo'lgan Devoniy ijodiga ham hurmat bilan qaraydi:

*Biri she'r xaylini Devoniydurur,
Zamiri durri ma'ni konidurur.
Oning aytg'on nazmidur bu g'azal,
Ki, bordur bu olam aro bebadal.[6:109]*

"Tazkirai shuaro". Laffasiyning "Tazkirai shuaro" asari Kamoliyning hayotiy faoliyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Shu bilan birga muallif tomonidan shoirning bir necha she'rlari ham beriladi. Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida "Tazkirai shuaro"ning uchta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. 12561 raqamli qo'lyozmaning 4^a-sahifasida "Tazkirai shuaro" 1945 inchi yil, shahri Xiva, 1365 inchi hijriy, asari Hasanmurod qori bin Muhammadamin Xivaqiy" jumlasini yozilgan. Qo'lyozmaning 205^a-sahifasida qayd etilgan "Ba qalami Hasanmurod qori bin Muhammadamin Xivaqiy, 1945 inchi, 23 iyun" jumlasini esa asarning yozib tugallangan yili to'g'risida ma'lumot beradi. Tazkiraning 9494 raqamli nusxasi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Abduqodir Murodov tomonidan 1951-yilda, 11499 raqamli nusxasi esa Xiva tarix muzeyi xodimi Abdulla Boltaev tomonidan ko'chirilgan[7:14]. Tabiiyki, Laffasiy tomonidan ko'chirilgan nusxasi mukammal va tugal ma'lumotlarni qamrab olgani bilan ajralib turadi. Tazkirada Kamoliyning *"Taoli Alloh qilib sun'ing zamin-u osmon paydo"* va *"Kecha bedor edim to tonggacha ko'zdin oqib yoshim"* misralari bilan boshlanuvchi g'azallari o'rin olgan. Laffasiy Otanazar Kamoliy xususida e'tirof etib shunday yozadi:

Kamoliykim, Otanazar mutavallidur, ul Muso mutavallining o'g'li bo'lub, yoshlig' zamonida ilm tahsilini Xiva qozisi Inoyatulla ohunddan o'qib, xatmi kitob qiladur. Mutavalli demakkim bir mansabdur. Xiva xonlig' zamonlaridin o'ttiz ikki nafar umaro-vuzaroning bir nafari hisoblanadur. Mutavalli esa Xiva hazrati Pahlavon Mahmud ota alayhi rahmonning mujovur shayxlaridin bo'lib, xon huzurinda dag'i mo'tabar vuzarolar jumlasidin har bir maraca-majlislarda o'rinli bo'lib kelgani aniqdur. Ammo Kamoliy dag'i mo'tabar umaro-vuzarolar jumlasidin bo'lganidek, Feruzga payrav, g'azal abyotlar yozib turar erdi.

Ammo Kamoliyning har bir she'rlari zohiri ishq-muhabbatdan bo'lib hisoblansa dag'i haqiqatda bir daryoyi ummon bo'lib, ilm g'avvoslari bir nuqtasidin yuzlarcha ma'niyi ma'naviy hosil qilur erdilar. Ammo Kamoliy Feruzning vafotidan keyin Asfandiyorxon zamonida anchakli hurmati bo'lmay, faqat o'z vazifasi mutavallilik mansabida yashab, 1914-yil o'z yostig'iga bosh qo'yib, safari oxirat qilib jannat bo'stoniga manzil qiladur[8:58].

Bundan tashqari Kamoliy haqida bitilgan ikki masnaviy ham shoir ijodi harakteri haqida ma'lumot beradi

*Kamoliyki asli shayxi mutavallidur,
Xasbu va nasb shayx mutavallidur.
Otanazardur ismi oning,
Laqabda zoti Kamoliy oning.
Kamoliy dag'i mard komil bo'lib,
Onga fahm ila xush hosil bo'lb...[9:57]*

Tazkiradan o'rin olgan Kamoliy qalamiga mansub she'rlar matnida ba'zi nuqsonlar kuzatiladi. Masalan, *"Taoli Alloh qilib sun'ing zamin-u osmon paydo"* deb boshlanuvchi g'azal shoir devoni manbalarida to'qqiz baytdan iborat. Tazkirada esa noma'lum sabablarga ko'ra uning ikki bayti qisqartirilgan. Asarning 1992-yilda amalga oshirilgan nashrida ayni ushbu g'azaldagi *yetdi so'zi otdi, labbayk so'zi labbay, aro zoting so'zi irodang, botin so'zi betinim* shakllarida kelib birmuncha mazmun o'zgarishiga olib kelgan. Undan tashqari g'azalning uchinchi *Nidokim yetdi ruhlar sam'ig'a, ro'y rost erdi* misrasidagi *ro'y rost* so'zi hamda *Erursen boriyo zohir maqom lomakoni ichra* misrasidagi oxirgi so'z tushirib qoldirilib ko'p nuqta (...) qo'yib ketilgan[10:57-58]. Umuman, "Tazkirai shuaro"da keltirilgan ma'lumot va she'rlar Otanazar Kamoliyini yaqindan bilgan, u bilan bir muhitda qalam tebratgan ijodkorning esdaliklari sifatida qimmatli manbadir.

"Xorazm navozandalari". Bobojon Tarroh Azizov Xodim qalamiga mansub ushbu qimmatli manba XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Muhammad Rahimxon II Feruz homiyligi ostida saroyda yashagan 31 shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida o'rinli ma'lumotlar berilgan. Muallif har bir shoirning hayoti va ijodi xususida ma'lumot berar ekan o'z oldiga o'n ikki muhim savolni qo'yadi va har bir ijodkor faoliyati shu savollar javobi orqali yoritilgan. Xodim tazkirasida Kamoliy hayoti va ijodiy faoliyati haqida bir qancha qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan, shu bilan birga chalkash fikr va shaxsiy yondashuvlar ham yo'q emas. Quyida tazkiradan o'rin olgan ma'lumotlarni keltirdik:

Shoirning ismi Otanazar mutavalli, otasining ismi Muso mutavalli bo'lg'on. Otanazar Xevada mashhur hazrati Polvon otaning mutavallisi edi. Uning adabiy nomi Kamoliy edi. Kamoliy Xeva qal'asining qiblasidagi Shixlo qishlog'ida tug'ilg'on. Shu qishloqda otasi Muso mutavalli ruhoniy oilasidan chiqqan.

Shoir Kamoliy eski maktabni bitkazgan xolos. Madrasa ta'limini olmagan. She'rlarini o'zi ayta bilmas, Islomxo'ja devonidagi Muhammad Niyoz Mahmud devon, adabiy nomi Umidiy, aytib berar edi.

Kamoliy devon tartib bergan emas. O'zi boshqa birovga she'r aytdirsam, nechuk tartib beradi?

Otanazar mutavalli 40 yoshlarida shoirlik bilan shug'ullana boshlag'on. Bunga sabab xonga yaqinlashishdir. Biroq u soz ilmidan mutlaqo bexabar bo'lg'on.

Kamoliy o'rta bo'yli, oq soqol, xushsurat, xushmuloqot kishi edi. Xalq bilan aloqasi yaxshi edi.

Shoir Kamoliy 65 yoshida o'zining tug'ilg'on joyi bo'lmish Shixlo qishlog'ida vafot etgan. Bu qishloq Xeva qal'asining qibla tarafindadir. Jasadi Shixlo qabristonig'a qo'yilg'on[11:54-55].

Xodim ushbu davr adabiy muhiti vakillari xususida so'z yuritar ekan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqealarini o'z nuqtai nazaridan yoritadi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Bu esa ba'zi o'rinlarda haqiqatni ochiqqlasa, yani ba'zi o'rinlarini esa boshqa manbalar bilan muqoyasa qilishga undaydi. "Xorazm navozandalari"ning so'ng so'zida olim Davlatyor Rahim ham yuqoridagi fikrlar yuzasidan shunday deydi: - "Albatta, Xodim o'z davrining odami, tirik inson. U kimnidir yaxshi ko'rgan, kimdandir xafa bo'lgan, nafratlangan. Shu bois asarning ayrim o'rinlarida, ba'zi shoirlarga munosabatda u xolislikdan chekingan bo'lishi mumkin. Xolis hukmni o'sha davrga oid boshqa manbalar bilan taqqoslash asosidagina chiqarish mumkin, xolos.

Binobarin, muallifning bu singari xulosalarigaa tanqidiy nuqtai nazaridan qarash lozim bo'ladi"[12:93].

Yuqorida aytilganidek Otanazar Kamoliy hamda boshqa ijodkorlar to'g'risidagi noxolis fikrlar aynan shu davrda yozilgan boshqa manbalar bilan qiyosiy o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhitidagi o'ziga xosliklar, ro'y bergan muhim o'zgarishlar va rivojlanishlar o'zbek adabiy manbashunosligida muhim o'rin qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. –Тошкент, 2017, 4 август.
2. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Kamoliy. – № 948-inv. – B. 3.
3. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Ahmad Tabibiy. – № 1134-inv. – B. 41.
4. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi Ahmad Tabibiy. – № 1152-inv. – B. 10.
5. Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – B.14.
6. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи: П.Бобожонов. – Урганч: Хоразм, 1992. – B. 58.
7. Bobojon Tarroh Azizov Hodim. Xorazm navozandalari. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 93.
8. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. –Тошкент, 2017, 4 август.
9. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Kamoliy. – № 948-inv. – B. 3.
10. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Ahmad Tabibiy. – № 1134-inv. – B. 41.
11. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Ahmad Tabibiy. – № 1152-inv. – B. 10.
12. Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – B. 14.
13. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи: П.Бобожонов. – Урганч: Хоразм, 1992. – B. 58.
14. Bobojon Tarroh Azizov Hodim. Xorazm navozandalari. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 93.
15. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август.
16. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi. Kamoliy. – № 948-inv. – B. 3.
17. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi. Ahmad Tabibiy. – № 1134-inv. – B. 41.
18. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi. Ahmad Tabibiy. – № 1152-inv. – B. 10.
19. Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – B. 14.
20. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи: П.Бобожонов. – Урганч: Хоразм, 1992. – B. 58.
21. Bobojon Tarroh Azizov Hodim. Xorazm navozandalari. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 93.